

**O'ZBEK XALQINING QADIMIY MAROSIMLARI**

*SHDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti o'qituvchisi*

***Azamova Sitora Ayonovna***

*SHDPI Tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi*

***Jumayeva Marjona***

***Annotatsiya:*** Mazkur maqolada qadimgi turkiy xalqlarning diniy e'tiqodlari va ularning xalq an'analari va marosimlaridagi aks-sadolarini o'rganish nazarda tutilgan. Totemizm, fetishizm, animizm, shomonlik va zardushtiylik kabi qadimiy diniy e'tiqodlar turkiy xalqlar hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, bu tasavvurlar orqali xalq o'z qadriyatlarini, urf-odatlarini va dunyoqarashini shakllantirgan. Ayniqsa, totemizmning o'zi turkiy xalqlarning bir qismi uchun muqaddas hayvonlar yoki o'simliklar bilan bog'liq bo'lib, bu e'tiqodlar bugungi kunda ham ba'zi an'analarda saqlanib qolgan. Bo'ri totemi, zardushtiylik falsafasining axloqiy talablari, oila va nikoh marosimlaridagi olovning ramzi sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Ushbu maqolada, shuningdek, o'zbek xalqining an'ana va urf-odatlari bilan bog'liq bo'lgan ba'zi marosimlarning tarixiy ildizlari tahlil qilingan.

***Kalit so'zlar:*** Totemizm, Fetishizm, Animizm, Shomonlik, Zardushtiylik, Bo'ri totemi, Urf-odatlar, Marosimlar, O'rta Osiyo, Turkiy xalqlar, O'g'uzxon davri, Ahura Mazda, "Avesta", Olov, E'tiqodiy qarashlar, Tabiat va turmush, Xalq xotirasi, Ajdodlar, Diniy tasavvurlar.

Xalqning an'ana va marosimlarida bashariyat xotirasida uzoq davom etib kelayotgan diniy tasavvurlar, uzoq tarix qa'ridagi e'tiqodiy qarash va tushunchalar, asrlar davomida kuzatishlardan hosil bo'lgan hayotiy hikmatlar yig'indisi – inson tafakkuri tajribasining aks-sadosi mujassamlashgan. Uzoq o'tmishda yashagan ajdodlarimiz tabiat va turmushdagi ayrim narsa va hodisalarni ilohiylashtirganlar. Ularni Tangri tomonidan berilgan ehson, ideal (maqsad), qadriyat deb bilganlar

va odamlar ularga sig'inib, ularga topinishlari lozim deb o'ylaganlar. Har bir qadriyat va marosimning kelib chiqishini turli diniy qarashlar bilan izohlashga uringanlar. Shu bois ham ajdodlarimiz totemizm, fetishizm, animizm, shomonlik kabi qadimgi diniy e'tiqodlarga sig'inishgan.[1] «Totemizm» atamasi Shimoliy Amerika hindularining algonkin guruhi tarkibiga mansub «ojibve» kabi tillaridagi «ot-otem» yoki «ot-otam» so'zlaridan olingan bo'lib, «uning urug'i» degan ma'noni anglatadi.[2]

Shuni ta'kidlash joizki, totemizmning klassik shakli hukmron bo'lgan qadimgi totemistik qabilalar urug'-aymoqlarga bo'lingan. Har bir aymoq o'zaro biror-bir hayvon, o'simlik yoki ashyo (ko'p hollarda hayvon) bilan bog'langan. Bir totemga e'tiqod qiluvchilar o'rtasida o'zaro nikohga yo'l qo'yilmagan. Totem paydo bo'lishida tabiiy jinslarga bo'linish asosiy o'rinda turgan. Bu holat, o'z navbatida, jinsiy totemizm rivojiga ta'sir ko'rsatgan. Odatda, jinsiy totemizmida bir urug'dagi barcha erkaklar totemi alohida, ayollarniki alohida bo'lgan. Ya'ni, har bir jinsiy guruh qandaydir hayvon, o'simlik yoki ashyo bilan do'stona yoki qarindoshlik munosabatlariga kirishgan. Jins totemizmida ko'pincha sut emizuvchi hayvonlar, qushlar va o'simliklar totem bo'lgan. Jins totemizmi otadan o'g'ilga, onadan qizga o'tib kelgan.[3] Totemizm qadimgi turkiy xalqlar hayotida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Totemizmida ba'zi o'simlik (daraxt) va hayvonlar odamlarning qo'riqlovchisi va tangrilari hisoblangan. Muayyan qavm a'zolari aniq bir hayvon yoki o'simlik zotidan kelib chiqqan degan tasavvur shakllangan. Shu boisdan ham totem ular uchun ilohiy (muqaddas) hisoblangan. Ilmiy adabiyotlar turkiy xalqlarning o'tmishda bo'ri, burgut, ilon, echki, qo'y, ho'kiz, daraxt va boshqa totemlarga e'tiqod qilganliklari haqida guvohlik beradi.[4] Masalan, o'zbek, qozoq, turkman, Janubiy Sibir xalqlaridan Oltoy turklari, ya'ni yo'qutlar, chuvashlar, osiyoliklar — mo'g'ullar orasida bo'ri, ot, ayiq, ho'kiz kabi hayvonlarga nisbatan totemistik e'tiqod nihoyatda kuchli bo'lgan. Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi tarokima" asarida qayd etilishicha, O'g'uzxon davrida shumqay, burgut, uqqi, qarchig'ay, turumboy, lochin, xumoy, tuyqun, qarg'a muqaddas qush — totem

hisoblangan.[5] Mashhur sharqshunos olim V.V.Bartold Rashiddin ma'lumotlariga asoslanib, hatto islom davrida ham totemizm saqlanganligini va ular har bir qushni e'zozlaganligi, urug' a'zosi deb hisoblaganligi, ularga tegmaganligi va go'shtini yemaganligi haqida yozgan. Bundan tashqari, o'zbeklar tarkibida burgut, burkut kabi etnonimga ega urug'lar paydo bo'lishi ham totemistik qarashlar bilan bog'liq bo'lgan.[6]

**Bo'ri totemi.** O'tishda juda ko'p urug'-qabilalar bo'rini o'z totemi — ilk ajdodi deb hisoblaganlar. Jumladan, qadimiy afsonalarda bo'ri turkiy qabilalardan bir qismining buyuk ajdodi sifatida ulug'langan va shu boisdan u turkiy xalqlarda muqaddas hayvon sanalgan. Bo'riga tayanish izlari o'zbek xalqining turli urf-odatlar va irimlarida bugungi kungacha ma'lum darajada saqlanib qolgan. O'zbek xalqi orasida yangi tug'ilgan chaqaloq hayotini bevaqt o'lim va turli balo-qazolardan asrash bilan bog'liq o'tkaziladigan qator marosimlarda bo'ri totemi bilan bog'liq rasm-rusumlar qadimgi turkiy xalqlarning totemistik ko'rinishlaridagi qarashlari bilan to'la-to'kis mos keladi. Bo'ri toteminin oila va farzand tushunchalari bilan bog'liqligi Farg'ona vodiysida farzandsiz ayollarning bo'ri tishini taqib yurishida yaqqol namoyon bo'ladi. Andijonda bola tug'ilishini osonlashtirish niyatida bo'lajak onaga quritilgan bo'ri yuragidan oz miqdorda yedirilgan yoki to'lg'oq tutgan ayolning ko'rparasining o'ng tomoniga bo'ri payi qo'yilgan. Farzand dunyoga kelgandan so'ng esa u yetti kun davomida saqlab turilgan.

**Ot totemi.** Jahon xalqlari tarixida keng tarqalgan ilk diniy e'tiqod ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. O'tmishdagi ko'plab marosim va bayramlar ana shu e'tiqod bilan bog'liq bo'lgan. Turkiy xalqlarda, jumladan, o'zbek xalqi tarixida ham ot totemi muhim o'rin tutgan va uning izlari maishiy turmushimizda bola tug'ilishidan tortib to azagacha bo'lgan marosimlarimiz tarkibida bugungi kungacha saqlanib kelgan Qadimgi turkiylar ilohiy mo'jiza bo'lgan otga gapiradigan, ucha oladigan, aqlli maxluq sifatida qaraganlar. Turmushda muhim o'rin tutgan ot muqaddaslashtirilib, sig'inish (kult) darajasigacha ko'tarilgan. Darvoqe, ot nomi bilan borliq haqidagi dastlabki qarashlar Avestodagi quyosh

xudosi Mitraga bag'ishlangan Yasht (ilohiy madhiyalar)larda uchraydi. Avestoning Yashtlarida ta'kidlanishicha, Ot Sharqiy Eron va O'rta Osiyodagi qadimgi xalqlar, ya'ni buqa totemli Atvya qabilasiga qarshi kurashuvchi Purushasp qabilasining fratriyasi sifatida ifodalangan. Biroq, keyingi davr zardushtiylik yozuvlarida ot Ahriyman timsoli sifatida, ya'ni qora ot shaklida tasvirlanadi.[7]

Qadimda O'rta Osiyo turkiy xalqlari tarixida Shomonlik muhim o'rin tutgan. Tarixiy manbalar shohidlik berishicha, shomonlik animistik e'tiqodlarning ma'lum bosqichida paydo bo'lgan. Turkiy xalqlar ajdodlari yordamchi ruhlar, ya'ni parixonlar, ogaxonlar va momolar mavjudligiga, shuningdek, dev va jinlarning borligiga katta ishonch bildirganlar. Faqat ishonganlar emas, balki shomonlar orqali ular bilan ruhiy hamkorlikda ish olib borganlar. Shomon so'zi tungus-manjur tilidagi «saman» so'zidan olingan bo'lib, odatda «telbasifat», «dali-devona» kishilarga nisbatan qo'llangan. Turk afsonalarida esa shomon so'zi xitoycha (chinch) «istaklarni yenga oluvchi kimsa» deb ta'riflanadi.[8] Vaqtlar o'tishi bilan O'rta Osiyo hududlariga Zardushtiylik dini ham kirib kela boshladi. Zardushtiylik falsafasiga ko'ra, yaxshilik va yomonlik insonlarning botiniy — ichki dunyosida yashaydi. Inson esa Ahura-Mazda ruhidan yaratilganligi tufayli yaxshilik uchun kurashishi zarur. Lekin bu dunyoning asoslari yaratilishiga Axriman aralashganligi sababli, inson qalbi, shuningdek, butun dunyo kabi, yaxshilik va yomonlik, nafs bilan kibr, hasad bilan saxovat kabi ezgu fazilatlar va yomon xususiyatlar kurashi maydoni hisoblanadi. Shu tufayli, zardushtiylik ta'limotini qabul qilgan har bir shaxs o'zini behdiy — ezgu dinidagi deb atagan. Zardushtiylikning asosiy axloq-odob falsafasi uch so'zda — «Gumantu» — ezgu fikr, «Gutka» — ezgu so'z, «Gvarishta» — ezgu amalda mujassamlashgan. Demak, Zardushtiylik imoni fikrlar sofligi, so'zning sobitligi, amallarni insoniylashtirishdan iborat bo'lgan.[9] «Avesta»da oila butunligini saqlash, nikoh tartiblari, er-xotin majburiyatlari, nikohni bekor qilish sabab va shartlari batafsil bayon etilgan. Avesta-shunos olim X.Xomidovning ta'kidlashicha, «Avesto»ning alohida Yashtlarida Ahura Mazda yoki Zardushtning kelin-kuyovlarga da'vati

yoki murojaatlari keltirilgan. Zardushtiyalar ta'moyiliga ko'ra, uylanmoqchi, oila qurmoqchi bo'lgan har bir kishiga yo'l ko'rsatmoq va moddiy yordam bermoq ham mazhablarning vazifasidir. O'zbekona urf-odatlariga ko'ra, nikoh marosimlari boshlanishidan to yakuniga qadar oila, qarindosh-urug'lar, mahalla, qishloq okrugi maslahati va yo'l-yurigi bilan bajarilishi an'anaga aylangan. Bu borada har bir muhim tuy-tantanalardan oldidan o'tkaziladigan «maslahat oshi» tadbirlari bunga yorqin misol bo'la oladi. Zardushtiylikning biror-bir marosimi shu e'tiqodning ramzi — olovsiz o'tgan emas. Olov turli ko'rinishlarda: osmon olovi, daraxtga yashirin olov, otashgohlarda sayib turgan olov, ilohiy olov, chakmok olovi va inson tanasiga issiqlik va hayot bag'ishlovchi olov kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lgan. Olovga bo'lgan hurmat va e'tibor odatlarning boshqa ba'zi ko'rinishlari O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, Farg'ona vodiysi o'zbeklari turmush tarzida hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Vodiya kipchoklarida xonadon uchog'i hech qachon uchirilmas ekan.[10] Maqolada keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, qadimgi turkiy xalqlarning diniy e'tiqodlari va tasavvurlari bugungi kunda ham xalqning an'ana va marosimlarida o'z aksini topmoqda. Totemizm, fetishizm, animizm va zardushtiylik kabi qadimiy e'tiqodlarning turkiy xalqlar hayotidagi roli tarixiy jihatdan ahamiyatli bo'lib, bu e'tiqodlar xalqlar o'rtasida dunyoqarash, oila va ahloqiy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim o'rin tutgan. Ayniqsa, bo'ri totemining oila va farzand tushunchalari bilan bog'liq marosimlar, shomonlik va zardushtiylik falsafasi orqali amalga oshirilgan an'analar bugungi kunda ham o'zining ko'rinishlarini saqlab qolmoqda. Demak, bu qadimiy diniy qarashlar nafaqat tarixiy jihatdan, balki xalqning madaniyati va hayot tarzini shakllantirishda ham muhim rol o'ynagan.

#### ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Frazer J. Totemism and Exogamy, L, 1910
2. Mac Lennan J.F. On the worship of animals and plants //Fortnightly Review. 1869.Oct.,nov,;1870.Febr:Токарев С.Н. Ранние формы религии.-М. Политиздат, 1990

3. Токарев С.А. Ранние формы религии. М., Политиздат, 1990
4. Толстой С.П. Проблема родового общества.
5. Абулгозий Бацодирхон. Шажарайи тарокима. Т., 1995. - Б. 48
6. Дониёров Х. Узбек халкининг шажара ва шевалари Т., 1968; Кораев С. Этнонимика.-ТД97
7. Авесто Тарихий адабий мерое! А.Махдам таржимаси. Т. Шарк,.: 2001
8. Мурот Уроз. Турк асотирдари. //Сирли олам.- 1991
9. Маковельский А.О. Авеста. Баку, АН Азарб. ССР, 1960.
10. Хамидов Х “Авеста файзлари.-Т..2001.